



“HAMLET” TRAGEDIYASIDA QASOS MOTIVINING BADIY
TALQINI

Munisa Turdiboyeva,

TerDU talabasi

Ilmiy rahbar: Sarvar To‘liboyev

TerDU o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada U.Shekspirning “Hamlet” tragediyasida qasos motivining badiiy-falsafiy talqini tahlil qilinadi. Asarda Hamlet obrazining ichki ruhiy kechinmalari hamda adolat va qasos o‘rtasidagi murakkab ziddiyat yoritiladi. Shuningdek, qasosning inson ruhiyati va taqdiriga ko‘rsatgan halokatli ta’siri tragediya g‘oyasi asosida baholanadi.

Kalit so‘zlar: Hamlet, qasos, tragediya, ruhiy konflikt, ichki kechinma, adolat, Shekspir dramaturgiyasi.

Abstract: This article analyzes the artistic and philosophical interpretation of revenge in William Shakespeare’s tragedy Hamlet. It explores Hamlet’s inner psychological struggles, moral dilemmas, and the complex conflict between justice and revenge. The destructive impact of revenge on human destiny and psychology is evaluated through the ideological framework of the tragedy.

Keywords: Hamlet, revenge, tragedy, psychological conflict, inner experience, justice, Shakespearean drama.

Uilyam Shekspir - jahon adabiyotining eng yorqin ijodkorlaridan biri. Uning ijodi jahon dramaturgiyasining asosi hisoblanadi. Kelajak yoshlarni Shekspir ijodiga qiziqtirish, ya’ni insonlar yuragidagi adolat, ezgulik, mardlik va jasorat, sevgi va sadoqat, bir so‘z bilan aytganda, yuksak insoniy fazilatlarni badiiy mahorat bilan anglatishdir.

Ingliz dramaturgi va shoiri U.Shekspirning hayot yo‘liga qarasa, u 1564-yilning 23-aprelida Stenford shahrida duyoga keladi.Otasi Jon Shekspir va onasi



Meri Uilyam uni til va adabiyot yaxshi o'rgatiladigan maktabga qo'yishadi. Ulg'ayganidan so'ng o'z shahridan bo'lgan Enn Xatauey ismli qizga uylanadi va keyinchalik ular 3 nafar farzand ko'radilar. Qizi Syuzen va egizaklar Hamlet va Judit. 1592-yilda Shekspir Londonga boradi va teatrda aktyor sifatida ishlay boshlaydi. 1593-yil, oradan bir yil o'tib uning "Venera va Adonis" nomli dostoni chop etiladi va bu asar uning muvaffaqiyatlarining ilk eshigi edi. 1594-yilda esa uning yana bir mashhur asari "Lukresiya" dostoni ham e'lon qilinadi va bundan keyingi 3 yil ham unga omadli keladi. 1597-yilda u va oilasi Londonni tark etib Stenforddagi yangi uyiga ko'chib o'tishadi. Londonlik tanqidchi F. Meresozining "Aql xazinasini" kitobida Shekspirga bergan ta'rifin aytib o'tish kerakki: "Plavt va Seneka rimliklar uchun tragediya va komediya borasida tengsiz bo'lgani kabi, Shekspir ham inglizlar uchun pyesaning har ikki turida ham beqiyosdir".

Haqiqatda, Shekspirning yaratgan 36 ta dramatik asar, 154 ta sonet va pyesalari hamda bir necha dostonlari uning serqirra ijodkor bo'lganligini isbotlaydi. Hatto u 1603-yilda Qirol Yakobning nazariga tushadi va u hamda uning guruh a'zolari "Qirol hazratlarining xizmatkorlari" nomi bilan ataladi va saroy a'zolari qatorida hisoblanadi. Ular saroyda turli tomoshalar ko'rsatib turishardi va hammaning e'tibor markzida edi, shu sababli amaldorlar va aslzodalar ularni siylab turishar edi. Buning natijasida uning moddiy ahvoli ancha yaxshilanadi va u Stenforddan va Londondan bir qancha yer sotib oladi. Keyinchalik esa maahhur aktyor teatr va adabiy ijoddan uzoqlashadi. 1616-yil 23-aprelda iste'dodli aktyor va tengsiz shoir, buyuk dramaturg Uilyam Shakspir bu dunyodan ko'z yumadi. Uning "Qirol Lir", "Makbet", "Hamlet", "Romeo va Juletta" va "Otello" kabi tragediyalari, "Yoz kechasidagi tush", "Venetsiya savdogari", "O'n ikkinchi kecha" singari komediyalari mana hozir kungacha dunyodagi eng mashhur teatr sahnalaridan tushmay kelmoqda. Negaki jahon dramaturgiyasining bunday beqiyos namunalari badiiy mahoratning cho'qqisi hisoblanadi. Shekspirning asarlari inson histuyg'ularini qarama-qarshi, chigal hamda murakkab qirralarini ta'sirchan qilib ifodalashi bilan boshqalar ijodidan ajralib turadi. Shekspir yaratgan asarlari har yili dunyo bo'lyab maktab, havaskor va professional spektakllar orqali yashab kelmoqda.



Darhaqiqat, buyuk nemis shoiri Iohan Volfgang Gyote ta'riflaganidek, "Shekspir bepoyon..." uning merosi mana to'rt asrdirki dunyoning barcha xalqlarini o'ziga rom qilmoqda. Shekspir o'z ijodida tragediyaga sabab bo'luvchi insonni aniq tasvirlab bera oladi, uning ko'pgina tragediyalari borki barchasida ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash yaqqol tasvirlanadi. Shunday tragediyalaridan biri "Hamlet"dir. Bu fojia inson ruhi va hayotini tiklashga qaratilgan fojia. Bu asarda ham qolganlari ham yaxshilik va yomonlik orasidagi jang tasvirlanadi. Shekspir asarlarida hech qachon yomonlik yaxshilik ustidan g'olib kelmagan, ya'ni muallif kitobxonni qahramonga hamdard bo'lishini va uni his qilishini xohlaydi, ana shunday asarlarining durdonasi bo'lgan asar bu uning "Hamlet" tragediyasidir.

"Hamlet" asarini rus tilidan o'zbek tiliga ilk bor 1934-yilda Abdulhamid Cho'lpon tarjima qilgan. Asarning 1948-yilda Maxsud Shayxzoda tomonidan qilingan tarjimasi ham xalqimiz orasida o'z obro'siga ega. Shuningdek, 1991-yilda Jamol Kamol ham bu ishga qo'l urib, u to'g'ridan to'g'ri aslidan, ya'ni ingliz tilidan o'zbek tiliga o'giradi.

Hamlet shunchaki qasoskor emas, balki hayot va o'lim orasidagi muvozanatni izlovchi, chuqur falsafiy mushohada yurituvchi qahramon sifatida tasvirlangan. U aqlli, mag'rur va bilimli shaxs bo'lgani uchun ham har bir qadamini bosishdan oldin uning oqibati haqida chuqur o'ylaydi. Amakisi tomonidan otasining o'ldirilishi va onasining qisqa vaqt ichida qotilga turmushga chiqishi Hamlet uchun dunyoni zindonga aylantiradi. Hamlet amakisini ibodat paytida o'ldirishdan voz kechadi. Buning sababi uning dindorligi va bilimdonligidir — u gunohkor odam ibodat ustida o'ldirilsa, jannatga tushishi mumkinligidan qo'rqadi.

Hamlet... Bu fojia juda halokatli undagi qahramonlarning xususiyatlari, xakteri va o'y-fikrlari haqida to'liq ma'lumot berish uchun so'z yetarli emas bu olamda Hamlet hayot va o'lim orasidagi qasoskor ruh. Ammo asarni chin dildan tafakkur eta olgan kitobxon uchun Hamlet bir jangchi va qahramon sifatida taniladi. "Hamlet" - Daniya shahzodasi. "Hamlet" Shekspirning eng uzun pyesasi bo'lib, ingliz adabiyotidagi eng kuchli va ta'sirli tragediyalardan biri hisoblanadi. Hamlet g'ururli aqlli, ochiqko'ngil va mulohazali inson. Amakisi tomonidan otasining



o'ldirilganini bilgach dunyo ham, hatto sevimli Daniyasi ham zindondek tuyuladi. Daniya an'analariga ko'ra Hamletning onasi Gertruda Klavdiyga turmushga chiqadi. Bu Hamletga juda og'ir botadi. Ikkala do'sti ham Hamletga xiyonat qilgach, asar qahramoni faqat qilichiga va otasining ruhiga suyanadi. Biz asar qahramonidan sabrmatonatda dars olishimiz kerak. Hamlet komil inson deya olaman, bunga sabab shuki Hamlet g'azabda va xiyonat alamini tortayotgan bo'lsada amakisini ibodat vaqtida o'ldirmaydi. Hamlet juda madaniyatli va bilimli bo'lganligi sababli ibodat vaqtida o'ldirilgan odam shahid bo'lishi va jannatga tushishini biladi. Shuning uchun amakisini o'ldirmaydi. Hamletning qayg'uga botganligi, uning ruhiy holati adabiyotning eng ruhiy jihatdan murakkab belgilaridan biridir. Qahramonni "yetti o'lchab bir kesadigan" odam desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki Hamlet otasi siymosidagi arvohnning gaplariga ishonch hosil qilish uchun: amakisining otasini o'ldirish jarayonini aktyorlar orqali ifoda ettirib voqeaga ishonch hosil qiladi. U otasining o'limi tufayli hayot va o'lim o'rtasidagi qasoskor ruhdek bo'lib qoladi. Hatto o'zini umrbod jahannamda yashovchi ruhdek his qiladi. Ammo Hamlet ancha jabr ko'rgan bo'lsa-da, insoniy tuyg'ularini yo'qotmaydi. Hayotini izdan chiqargan, otasini o'ldirib onasiga uylanib olgan amakisini o'ldirishda ikkilanishi Hamletning insoniyligiga misol bo'la oladi. Uning qismati ayanchli yakun topgan bo'lsa-da, o'rnak olishga arziydigan qahramon. Hamlet niyatiga yeta olmay ayanchli o'lim topdi. Onasi va do'stlarining xiyonati tufayli Poloniyning o'g'li Laert tomonidan zaharlangan qilichda o'ldiriladi. Duel paytida hayajonlangan Gertruda Hamlet uchun tayyorlangan zahar solingan qadahdagi sharbatni ichib vafot etadi. Shekspir asarni shunchalik berilib yozganki, Hamletning yuragidagi qasos olovini his qila olamiz. Uning o'ylarini biz ham o'ylagandek, u bilan birga yuragimiz yonadi. Bu esa yozuvchining mahoratidan darak beradi. Shekspir bosh qahramon obrazini o'sha paytda eng yaxshi aktyorlardan hisoblangan Richard Burbege uchun moslashtirib yozgan. Pyesa yozilganidan beri o'tgan 400 yil o'tgan bo'lsa-da bir necha muvaffaqiyatli aktyorlar "Hamlet" rolini, ayniqsa ijro etgan. Shekspirning barcha asarlari, ayniqsa "Hamlet" tragediyasi hozirgacha kitobxonlar qo'lidan tushmay



keladi. Chunki bu asarni qayta-qayta o‘qigan sari yangi qirralari, yangi hissiyotlar va yangi o‘y-fikrlar paydo bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Namozov A. Uilyam Shekspir: serqirra ijod va mashaqqatli hayot. – Toshkent: [Nashriyot nomi], [nashr yili].

Jalilov B. O‘zbek dramaturgiyasi poetikasi masalalari. – Toshkent: [Nashriyot nomi], [nashr yili].

XVII asr chet el adabiyoti tarixi / [Mas’ul muharrir yoki muallif]. – Toshkent: [Nashriyot nomi], [nashr yili].

Shvedov Yu. Uilyam Shekspir. – [Nashr joyi]: [Nashriyot nomi], [nashr yili].